

HASSA

Ertak

Zahmatkash bir bog‘bon bo‘lib, u toshloq yerlami ham o‘zlashtirarkan va bog‘u bo‘stonga aylantirib yuborar ekan. U yerga, giyohlarga shunchalar mehr berarkanki, uning mehridan tuproq zarga, suv gavharga aylanarkan, natijada sahrolarda chamanzorlar, dashtlarda ko‘rkam bog‘lar bunyod bo‘larkan. Chamanlarda ming xil anvoyi gullar ochilib, ifor taratib turarkan. Dunyodagi barcha asalarilar gullardan sharbat olish uchun faqat shu yerga kelarkanlar. Bog‘bon bobo bog‘larda olma, o‘rik, gilos, anjir, xurmo daraxtlarini o‘stirib, mo‘l hosil olar ekan.

Kunlardan bir kuni tunda kuchli shamol esibdi. Bog‘bon ertalab bog‘iga kirsam, shamol mevalarni to‘kib, o‘rik shoxlarini sindirib yuboribdi. Bog‘bon shoxlarga tirgovich qo‘yib, to‘kilgan mevalaming hammasini terib olibdi va savatlarga joylabdi. Oila a‘zolarimiz bilan yeymiz deb o‘ylabdi bog‘bon ichida. Singan daraxt shoxini esa o‘tin qilib yoqmoqchi bo‘lib, qo‘liga olganida, shox tilga kiribdi:

- Ey bobo, men sizning mehringizdan dunyoga kelib, bo‘y cho‘zgan nihol edim. Endi esa keraksiz bo‘lib, o‘tinga aylanish arafasidaman. Iltimos, meni o‘tga tashlamang. Toki shu yerda qolay. Qurigan shox bo‘lsam-da, mehringizdan bahra olib turay. Balki men ham bir kuningizga yarab qolarman.

Bog‘bon uning gaplariga quloq solib, mayli, bir chetda tursang, turaqolgin, debdi.

Oradan kunlar o‘tibdi. Bog‘bon bog‘ini aylanib, daraxtlarga suv qo‘ygani kelibdi. Ariq boshiga egilganda, birdan bel og‘rig‘i tutib, egilib qolibdi. Turay desa, biron narsa yo‘qki, ushlab, tayanib qaddini rostlasa. Shunda:

- Bobo, keling meni tuting. Turishingizga ko‘maklashaman, - degan ovoz kelibdi. Bog‘bon o‘ng yoniga qarasa, bir necha kun o‘zi bir chetga olib qo‘ygan qurigan daraxt shoxi turardi.

Bobo unga suyanib, o‘midan turibdi va shoxga tayanib, uyiga kelibdi. Uning po‘stloqlarini shilib, jilo beribdi. Naqshlar chizib, chiroyli hassaga aylantiribdi va doim unga tayanib, suyanib yuradigan bo‘libdi.

Shunday qilib, hassa bobodan ayrilmaganiga, bobo esa o‘z mehnati bilan yaratgan bog‘idagi singan shox ham unga hamroh bo‘lganidan g‘oyatda quvonibdi. Qissadan hissa shulki, xolis niyat, halol mehnat bilan etishtirilgan har bir narsa qadrli, vaqti kelsa, qaysidir onda insonga madadkor va ko‘makchi bo‘ladi.